

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.12.2025.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**QO‘ZIBOYEV UMARBEK ULUG‘BEKOVICH**

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA  
TRANSPORT INFRAUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2026**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic  
sciences**

<b>Qo'ziboyev Umarbek Ulug'bekovich.</b> Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida).....	3
<b>Кузибоев Умарбек Улугбекович.</b> Совершенствование транспортной инфраструктуры для устойчивого развития региональной экономики (на примере Хорезмской области).....	29
<b>Kuziboyev Umarbek Ulugbekovich.</b> Improving transport infrastructure for sustainable development of the regional economy (on the example of Khorezm region).....	61
<b>E'lon qilingan ishlar ro'uxati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	65

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.12.2025.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**QO‘ZIBOYEV UMARBEEK ULUG‘BEKOVICH**

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA  
TRANSPORT INFRAUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch - 2026**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Iqt6259 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nazarmatov Oxunjon Sotvoldiyevich**

iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Bayxonov Baxodirjon Tusunbayevich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qodirov Farrux Ergash o'g'li**

iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.12.2025.I.06.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_: \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz))

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz))

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**I. S. Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**T. J. Raximov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

**B. Ruzmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida transport infratuzilmasi beqiyos o‘rin tutadi. Ya‘ni, transport tizimi ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, resurslar aylanishi, tovar va xizmatlar harakati, aholining harakatchanligi hamda hududlararo iqtisodiy integratsiyani ta‘minlaydigan tarmoq sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, global transport va logistika bozori hajmi 2024-yilda 1207.84 mlrd. AQSh dollarga baholandi va 2032-yilda esa 1798.17 mlrd.dollarga yetib, uning 5.1 % ga erishishi kutilmoqda<sup>1</sup>. Shuning uchun transport infratuzilmasini takomillashtirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta‘minlash, ekologik barqarorlikni mustahkamlash va hududlar raqobatbardoshligini kuchaytirishda ham hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Jahonda transport-kommunikatsiya tizimining rivojlanishi mintaqalarning global iqtisodiy tizimga integratsiyasini jadallashtirmoqda. Shu bilan birga, transport infratuzilmasining eskirganligi, logistika tizimidagi nomutanosibliklar, yo‘l tarmoqlari va transport xizmatlari sifatining pastligi iqtisodiy o‘sishga to‘sqinlik qilayotgan omillar sifatida saqlanib qolmoqda. Shu sababli zamonaviy yondashuvlar asosida, ya‘ni raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza transport vositalaridan foydalanish, multimodal logistika markazlarini tashkil etish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish orqali transport infratuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonni shakllantirish sharoitida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan taraqqiyot strategiyasining 28-maqсадida avtotransport vositalari eksportini 3 baravarga oshirish va 1 milliard AQSh dollariga yetkazish<sup>2</sup> lozimligi ta‘kidlab o‘tilgan. Shunday ekan, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bevosita transport infratuzilmasining holati va samaradorligiga bog‘liqdir. Infratuzilmaviy loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish, transport tarmoqlarini integratsiyalash va ekologik xavfsizlik tamoyillariga amal qilish natijasida mintaqalarda iqtisodiy faollik ortadi, aholining turmush darajasi yaxshilanadi hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun muhim yo‘nalish bo‘lib qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi “2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni ta‘minlash chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi 4707-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyundagi “Avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada

<sup>1</sup> <https://www.databridgemarketresearch.com/reports/global-transport-and-logistics-market>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi PQ-3028-son qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotida transport infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar F.Bacon, A.Burinskiene, R.Crescenzi, A.Rodríguez-Pose, G.Eidelman, M.Horak, R.Jochimsen, O.Katsutoshi, C.Magazzino, M.Mele, R.Pokharel, L.Bertolini, M.Brömmelstroet, C.Robert, P.Rosenstein-Rodan, P.Samuelson, W.Nordhaus, D.Yun kabilarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan<sup>3</sup>.

MDH mamlakatlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini samarali taraqqiy qildirish va uning faoliyatini takomillashtirish masalalari O.R.Antonova, M.P.Bolodurina, A.I.Mishurova, O.M.Volska, T.O.Kornienko, D.Kotts, V.V.Kruglov, I.I.Lyudvik, M.V.Mixaylov, K.A.Mitryukova, N.R.Pavlenko, V.Yu.Prokopenko, M.V.Dubina, S.P.Sonko, M.M.Skrinko va boshqalar tadqiqotlarida o‘rganilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup> Bacon F. *Novum Organum*. 1620. URL: [https://constitution.org/2\\_Authors/bacon/nov\\_org.htm](https://constitution.org/2_Authors/bacon/nov_org.htm). Last accessed: 02.04.2024); Burinskiene A. (2022). The Concept Towards Transportation Infrastructure and Its Capacity. In: *Development of Smart Context-Aware Services for Cargo Transportation*. International Series in Operations Research & Management Science, vol 330. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-07199-7\\_12](https://doi.org/10.1007/978-3-031-07199-7_12); Crescenzi R., Rodríguez-Pose A. Infrastructure and regional growth in the European Union. // *Papers in Regional Science*, Volume 91, Issue 3, August 2012. - p. 487-513.; Eidelman G., Horak M. Federalism and Transportation Infrastructure: The U.S. Experience. May 2018.; Jochimsen, R., Ed. *Theorie der Infrastruktur: Grundlagen der marktwirtschaftlichen Entwicklung*. Tbingen, J.C.B. Mohr. – 1966. – 235 p.; Katsutoshi O. The development of Japanese transportation policies in the context of regional development. // *Transportation Research, Part A: General*, Volume23, Issue1, January, 1989. - p. 91-101.; Magazzino C., Mele M. On the relationship between transportation infrastructure and economic development in China. // *Research in Transportation Economics*, Volume88, September 2021, 100947; Pokharel R., Bertolini L., Brömmelstroet M. How does transportation facilitate regional economic development? A heuristic mapping of the literature. // *Transportation Research Interdisciplinary Perspectives*, Volume19, May2023, 100817.; Robert C. Working Paper Transport infrastructure and the environment: Sustainable mobility and urbanism. // Working Paper, No.2013, 03. University of California, Institute of Urban and Regional Development (IURD), Berkeley, CA. - p. 7.; Rosenstein-Rodan P. Notes in the Theory of the «Big Push». *Economic Development of Latin America*. New York, 1961. - p. 60.; Samuelson P., Nordhaus W. *Economics*. Cambridge: McGraw Hill, 2009. 805 p.; Yun D. Development of transport planning in Seoul and South Korea: a historical overview from a SUMP perspective. // *Asian Transport Studies*, Volume11, 2025.

<sup>4</sup> Антонова О.Р. Становлення спільної транспортної політики ЄС у повітряних перевезень: управлінсько-правовий Південноукраїнський правничий часопис. 2022. № 4, т. 1. – 35 с.; Болодуріна М.П., Мишурова А.І. Концептуальні основи формування і розвитку транспортно-логістическої інфраструктури, // *Национальные интересы: приоритеты и безопасность*, 2019, Т.15, №2. - с. 246.; Вольська О.М. Основні напрямки державного регулювання транспортної галузі. Теорія та практика державного управління і місцевого самоврядування. 2019. № 1. URL: [http://nbuv.gov.ua/UJRN/Ttpdu\\_2019\\_1\\_17](http://nbuv.gov.ua/UJRN/Ttpdu_2019_1_17) (дата звернення: 14.07.2024).; Корнієнко Т.О. Державне регулювання у сфері телекомунікацій: деякі термінологічні аспекти. *Університетські наукові записки*. 2014. № 1. - 112 с.; Коттс Д. *Управління інфраструктурою організації*. пер. с англ. М.: Новини, 2001. 597 с.; Круглов В.В. *Розвиток державно-приватного партнерства в Україні: механізми державного регулювання: монограф.* - Харків: Вид-во ХарПІ НАДУ. «Магістр», 2019. 252 с.; Людвік І.І. *Інноваційний розвиток України в умовах глобалізації економічного простору. Держава та регіони. Серія: Економіка та підприємництво*, 2022 р., № 2 (125). - 36 с.; Михайлов М.В. Роль транспортної інфраструктури в регіональному економічному розвитку. // *Вестник Российского университета кооперации*, 2022, № 4(50). - с. 39.; Митрюкова К.А. Влияние транспортной инфраструктуры на социально-экономическое развитие регионов: практическая значимость и научные разногласия. // *Экономика, предпринимательство и право*, 2023, Т.13, №7. - С. 2399-2412. DOI 10.18334/ep.13.7.118352; Павленко Н.Р. *Транспортная инфраструктура республики Корея:*

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini samarali taraqqiy qildirish yo‘nalishlari va ular faoliyatini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar D.A.Abduraximov, X.Sh.Raximov, O.Tursunov, K.B.Urazov, R.Q.Jumaniyazova, S.O.Cho‘ponov, B.B.Sharipova va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan<sup>5</sup>.

Ammo, ushbu tadqiqotlarda mamlakatimiz, xususan Xorazm viloyati mintaqasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish yuzasidan tadqiqot ishlarining yetarlicha amalga oshirilmaganligi dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalarini belgilashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya mavzusi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mintaq iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

mintaq iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasining tutgan o‘rni va tadqiq qilishning obyektiv zaruriyatini ilmiy-nazariy asoslash;

mintaq iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasi shakllari va amalga oshirish tamoyillarini tadqiq qilish;

mintaq iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini taraqqiy qildirishning xorij tajribasini o‘rganish va bu borada mamlakatimizda ushbu sohaning samarali rivojlanishi yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan foydalanish holati tahlilini amalga oshirish;

mamlakat iqtisodiyotida transport infratuzilmasi rivojlanishini tartibga solish tizimini shakllantirish;

transport infratuzilmasining rivojlanish samaradorligi ko‘rsatkichlarini baholashni amalga oshirish va natijalarini umumlashtirish;

---

современное состояние и перспективные направления развития. // Вопросы студенческой науки, Выпуск №1 (29), январь, 2019. - с. 151.; Прокопенко В.Ю., Дубина М.В. Кредитна інфраструктура: особливості визначення сутності категорії. Науковий вісник Ужгородського університету. Серія «Економіка». 2015. Вип. 1 (45). Т. 1. С. 209-212.; Сонько С.П., Скринько М.М. Інфраструктура в умовах транзитивної економіки: монограф. Харків: Екограф, 2004. 256 с.

<sup>5</sup> Abduraximov D.A. Mintaqalar ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish - milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash omili sifatida. // Iqtisod va moliya, 2017, 4. - 63-70 b.; Raximov X.Sh. Mamlakat transport infratuzilmasi iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslari. // "Innovations in Science and Technologies" ilmiy-elektron jurnali, ISSN: 3030-3451, 2,2025. - 657 b.; Tursunov O. Mintaqaviy transport infratuzilmasini strategik boshqaruv mexanizmini takomillashtirish. // Research focus, Volume2, Issue2, 2023. - 46 b.; Urazov K.B., Orzukulova Z.A. (2025). The Importance of Transportation Infrastructure in the Regional Economic Development. In: Sultanova S.M., Babakhanova N.U., Shaumarov S.S., Masharipov M.N. (eds) Sustainable Development of Transport. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 1366. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-88846-5\\_11](https://doi.org/10.1007/978-3-031-88846-5_11); Jumaniyazova R.Q. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida). // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Urganch, 2025 - 11 b.; Чупонов С.О. Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasining roli. // Молодой ученый, 2017, №24.1 (158.1). - с. 33-35. — URL: <https://moluch.ru/archive/158/44585>; Sharipova B.B. Xorazm viloyatida transport xizmatlari ko‘rsatishning amaldagi holati tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2025-yil, sentyabr. No9-son. - 675 b.

Xorazm viloyati mintaqasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilma tarmog‘i holati tahlilini amalga oshirish;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirishning innovatsion yo‘nalishlarini taklif etish;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish istiqbollari aniqlashtirish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Xorazm viloyati mintaqasining transport infratuzilmasi tarmoqlari hisoblanadi.

**Tadqiqot predmetini** mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida tahlil, kuzatish, SWOT-tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash, induksiya, deduksiya, analogiya, anketa-so‘rovi, ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ishlab chiqarish va iste‘mol bozorlarini o‘zaro bog‘lash, logistika xarajatlarini kamaytirish, investitsiya jozibadorligini oshirish hamda mehnat resurslari harakatchanligini ta‘minlash bo‘yicha transport infratuzilmasi ta‘sirini aniqlashga qaratilgan kompleks ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan;

transport infratuzilmasidan foydalanishda hududlar kesimida transport tarmoqlari samaradorligi, yuk va yo‘lovchi oqimlari hajmi, o‘tkazuvchanlik darajasi hamda infratuzilmaning bandlik ko‘rsatkichlarini “yuqori” (0,8-1), “o‘rta” (0,5-0,7) va “quyi” (0,1-0,4) darajalarda baholash usuli va mexanizmi taklif etilgan;

mintaqa iqtisodiyotida transport tarmoqlari, logistika markazlari, ishlab chiqarish subyektlari va xizmat ko‘rsatish sohalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yagona tizim asosida muvofiqlashtirishni nazarda tutadigan transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishning tashkiliy-integratsion modeli taklif etilgan;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish ko‘rsatkichlarining 2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

mintaqa iqtisodiyotida transport infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari taklif etilgan;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasidan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini baholash metodikasi taklif etilgan;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirishning innovatsion va ustuvor yo‘nalishlari asoslangan;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish istiqbollari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** dissertatsiya ishida qo‘llanilgan metodologik yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalar orqali jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmasi ma‘lumotlari

va internet manbalari, davriy hisobotlaridan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, mintaqa transport infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan kompleks rejalarni ishlab chiqishda va shularni amalga oshirishga qaratilgan qarorlarni qabul qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Xorazm viloyati hokimligi, viloyatdagi transport sohasining infratuzilmalar faoliyatini samarali rivojlantirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish mumkinligi bilan belgilanadi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Infratuzilma iqtisodiyoti", "Transport sohasi tarmoqlari iqtisodiyoti" va "Transport sohasi marketingi" kabi fanlardan o'quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ishlab chiqarish va iste'mol bozorlarini o'zaro bog'lash, logistika xarajatlarini kamaytirish, investitsiya jozibadorligini oshirish hamda mehnat resurslari harakatchanligini ta'minlash bo'yicha transport infratuzilmasi ta'sirini aniqlashga qaratilgan kompleks ilmiy-nazariy yondashuvlar bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2026-yil 27-fevraldagi 10-09/1966-son ma'lumotnomasi). Natijada, transport infratuzilmasini mintaqa iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida baholashga, sarflanadigan logistika xarajatlarining o'rtacha 2-3 foizga qisqarishiga va transport xizmatlari samaradorligini o'rtacha 5-7 foizga oshirishga hamda transport siyosatini barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ravishda shakllantirishga ilmiy asos yaratgan;

transport infratuzilmasidan foydalanishda hududlar kesimida transport tarmoqlari samaradorligi, yuk va yo'lovchi oqimlari hajmi, o'tkazuvchanlik darajasi hamda infratuzilmaning bandlik ko'rsatkichlarini "yuqori" (0,8-1), "o'rta" (0,5-0,7) va "quyi" (0,1-0,4) darajalarda baholash usuli va mexanizmi bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2026-yil 27-fevraldagi 10-09/1966-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif mintaqalarda transport tizimining rivojlanish darajasini obyektiv baholash va samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish orqali hududlar kesimida muammoli yo'nalishlarni tezkor aniqlash va resurslarni maqsadli taqsimlash imkonini bergan;

mintaqa iqtisodiyotida transport tarmoqlari, logistika markazlari, ishlab chiqarish subyektlari va xizmat ko'rsatish sohalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yagona tizim asosida muvofiqlashtirishni nazarda tutadigan transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishning tashkiliy-integratsion modeli bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2026-yil 27-fevraldagi 10-09/1966-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif asosida transport tarmoqlari, logistika markazlari va ishlab chiqarish

sohalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yagona tizimda boshqarishga va infratuzilma tarmog'idan kompleks va muvofiqlashtirilgan tarzda foydalanishni ta'minlashga erishilgan;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish ko'rsatkichlarining 2030-yillarga mo'ljallangan ishlab chiqilgan prognoz qiymatlari bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2026-yil 27-fevraldagi 10-09/1966-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilish mintaqada transport siyosatini uzoq muddatli istiqbolda rejalashtirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun xizmat qilib, transport infratuzilmasini takomillashtirish ko'rsatkichlarini 1,3 barobarga oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, hamda 6 ta tezislar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi umumiy hajmi 115 betni tashkil etgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning "**Mintaqa iqtisodiyotida transport infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobda mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasining tutgan o'rni va tadqiq qilishning obyektiv zaruriyati, mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasi shakllari va amalga oshirish tamoyillari hamda mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini taraqqiy qildirishning xorij tajribasi o'rganilgan.

Jahon integratsiya jarayonlari va xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etayotgan, ijtimoiy islohotlarni amalga oshirayotgan yangi xavf va tahdidlar bilan birga keladi. Bu kompleks yondashuvni talab qiladi. Buning uchun davlat tomonidan tartibga solish transport infratuzilmasi va uning o'rni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga ko'maklashish va mamlakat va uning hududlari mudofaa qobiliyatini moddiy-texnik ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan transport infratuzilmasi mamlakat hayoti va uning milliy xavfsizligi va mustaqilligining kalitidir. Bu transport kombinatsiyalari turli mamlakatlar o'rtasida, shuningdek, tadbirkorlar va mintaqaviy

darajada jamoat transporti va operatsion ehtiyojlariga asoslanadi. Bu esa transport va sanoatdagi muhim moliyaviy sharoitlarini aks ettiradi. Moddiy-texnika bazasining yomonlashuvi rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish zaruriyatini yanada kuchaytirmoqda. Bu muammolarni davlatning tartibga soluvchi ta'sirisiz, takomillashtirishsiz hal qilish mumkin emas.

Bu borada har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va jahon bozorida raqobatbardoshligi, eng avvalo, uning transport infratuzilmasi holati va samaradorligi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Chunki, ushbu holat zamonaviy transport tizimi, ya'ni tovarlar, xizmatlar va aholi harakatini ta'minlovchi muhim iqtisodiy mexanizm sifatida mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu borada mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda transport infratuzilmasi logistika va savdo aloqalarini yaxshilash, investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish, aholi bandligi va turmush darajasini yuksaltirish uchun zarur bo'ladi. Shu bois, har bir davlat va hududiy boshqaruv organlari tomonidan transport infratuzilmasini rivojlantirish masalasi strategik ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.


Fikrimizcha, mintaqalar iqtisodiy salohiyatini oshirishda transport infratuzilmasi markaziy o'rinni egallaydi. Bu holatda har bir hududning iqtisodiy imkoniyati, uning tashqi va ichki bozorlarga chiqish imkoniyati bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, transport tizimi hududlarni iqtisodiy integratsiyaga jalb etuvchi asosiy vosita bo'lib qaraladi. Masalan, markaziy shaharlar bilan chekka tumanlar o'rtasidagi transport yo'llari yaxshilanganda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bozorga yetkazib berish tezlashadi hamda narxlar barqarorlashadi va aholining daromadlari ortadi. Shuningdek, sanoat korxonalarini uchun xom ashyo yetkazib berish va tayyor mahsulotni eksport qilish jarayonlari arzonlashadi.

Ushbu rivojlangan transport tarmoqlari iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holda transport sohasining rivojlanishi qo'shni davlatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Eksport-import operatsiyalarining arzon va tez amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi. Shunday ekan, mintaqaning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi omili sifatida transport infratuzilmasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining zarur ishlashini kafolatlaydi va mintaqaning mavjud salohiyatidan samarali foydalanishga imkon beradi. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda transport infratuzilmasining rolining ahamiyati mintaqaviy iqtisodiyotidagi maqsadlar, vazifalar va uning rolini belgilaydigan ilmiy tadqiqotlar zarurligi sababini aks ettiradi.

Transport infratuzilmasi har qanday milliy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy o'sishni, ijtimoiy taraqqiyotni va global aloqani rag'batlantirish uchun asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Transport infratuzilmasi rivojlanishi ustidan davlat nazoratining hududiy darajasi butun mamlakat transport tizimining samarali ishlashini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Barqaror transport infratuzilmasini amalga oshirish shakllari investitsiya shartnomalari, hayot aylanishi shartnomalari va davlat-xususiy sheriklik kabilarni o'z ichiga oladi, tamoyillar esa kam uglerodli transportga o'tish, inklyuziv aloqa, texnologiyalarni integratsiyalash va multimodal yondashuvni o'z ichiga oladi. Ushbu shakllar va tamoyillar samaradorlik, xavfsizlik, ijtimoiy kirish va atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirishga ustuvor ahamiyat berish orqali mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish rejalariga kiritilgan.

Tadqiqotlarga asosan, transport infratuzilmasi imkoniyatlari tushunchasi murakkab ahamiyat kasb etadi. Transport infratuzilmasi barcha joyda mavjud bo‘lib, zamonaviy jamiyat va uning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi uchun zarurdir<sup>6</sup>. Chunki, u yuklarning harakatchanligini, yetkazib berish xizmatlaridan foydalanishni va mahsulotlarni uzatishni ta’minlaydi hamda iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy o‘zaro aloqalarni osonlashtiradi. Bu borada dissertatsiyada mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan kompleks ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqildi. Ya’ni, fikrimizcha, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasi shakllari va uni amalga oshirish tamoyillari quyidagicha bir-biriga bog‘langan holda tasniflanadi (1-rasm).

Natijada, transport infratuzilmasini mintaqa iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida baholashga, shuningdek, transport siyosatini barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ravishda shakllantirish mumkin. Shular bilan birgalikda, transport infratuzilmasining samarali ishlashi turli ijobiy natijalarni yaratib beradi.



**1-rasm. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasi shakllari va uni amalga oshirish tamoyillari o‘rtasidagi bog‘liqlik<sup>7</sup>**

Shuningdek, mintaqa iqtisodiyotida barqaror rivojlanish omillari muhim o‘rin tutadi. Bu borada mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillar quyidagicha tasniflanadi (1-jadval):

<sup>6</sup> Burinskiene A. (2022). The Concept Towards Transportation Infrastructure and Its Capacity. In: Development of Smart Context-Aware Services for Cargo Transportation. International Series in Operations Research & Management Science, vol 330. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-07199-7\\_12](https://doi.org/10.1007/978-3-031-07199-7_12)

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi.

**Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillar tasnifi<sup>8</sup>**

<b>Omillar turi</b>	<b>Asosiy ko'rsatkichlar</b>	<b>Izoh</b>
Ijtimoiy omillar	Aholi bandligi	Ish o'rinlarining mavjudligi va aholi daromad manbalarining barqarorligi iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi
	Ta'lim darajasi	Malakali kadrlar mavjudligi innovatsiyalarni rivojlantiradi
	Sog'liqni saqlash	Sog'lom aholi mehnat unumdorligini oshiradi
	Ijtimoiy infratuzilma	Yo'llar, maktablar va shifoxonalar yashash sifatini yaxshilaydi
	Demografik holat	Aholi soni va tarkibi mehnat resurslariga ta'sir qiladi
Iqtisodiy omillar	Investitsiyalar hajmi	Ichki va tashqi investitsiyalar iqtisodiy faollikni oshiradi
	Sanoat va qishloq xo'jaligi rivoji	Ishlab chiqarish hajmi hudud iqtisodiyotining asosini tashkil qiladi
	Kichik biznes va tadbirkorlik	Yangi ish o'rinlari yaratadi va raqamlashtirish jarayonini tezlashtiradi
	Infratuzilma rivoji	Transport va kommunikatsiya tizimi iqtisodiy aloqalarni yaxshilaydi
	Innovatsiyalar	Yangi texnologiyalar samaradorlikni oshiradi
Ekologik omillar	Tabiiy resurslardan foydalanish	Resurslardan oqilona foydalanish barqarorlikni ta'minlaydi
	Atrof-muhit muhofazasi	Ekologik muvozanatni saqlash inson salomatligi uchun zarur bo'ladi
	Iqlim o'zgarishi ta'siri	Qishloq xo'jaligi va iqtisodiy faoliyatga bevosita ta'sir qiladi
	Chiqindilarni boshqarish	Ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi
	Yashil energiya	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari barqaror rivojlanishga imkon beradi

Ushbu 1-jadvalga asosan, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish quyidagi asosiy yo'nalishning uyg'unligiga bog'liq bo'ladi:

- ijtimoiy barqarorlik. Aholining turmush darajasi, bandlik darajasi va ijtimoiy xizmatlar sifati yuqori bo'lsa, iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam asos yaratiladi. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining rivojlanganligi inson kapitalini kuchaytiradi.

- iqtisodiy samaradorlik. Hududda ishlab chiqarish, investitsiya va tadbirkorlik rivojlangan bo'lsa, iqtisodiy o'sish tezlashadi. Infratuzilma va innovatsiyalar iqtisodiy tizimni zamonaviylashtirib, va raqobatbardoshligini oshiradi.

- ekologik muvozanat. Tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish uzoq muddatda iqtisodiy zarar keltiradi. Shu sababli, ekologik omillarni hisobga olgan holda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish lozim.

Bugungi globallashtirish jarayonlarida transport infratuzilmasi mamlakatlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, hududlararo integratsiya hamda investitsiyalar oqimini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Xalqaro amaliyot ko'rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'z iqtisodiy strategiyalarida transport tarmoqlarini

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi.

modernizatsiya qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Chunki, zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimi yuk va yo‘lovchilarni tashishga xizmat qiladi hamda iqtisodiy o‘shish hududiy barqarorlik va aholi farovonligi drayveri bo‘lib hisoblanadi. Mazkur jihatlaridan kelib chiqib, dissertatsiyada rivojlangan davlatlarning transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribasi tahlil qilindi. Xususan, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSh, Singapur va Xitoy kabi davlatlarning yondashuvlari o‘rganilib, ularning barqaror mintaqaviy rivojlanishdagi o‘rni ko‘rib chiqildi. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida O‘zbekiston uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy xulosalar shakllantirildi. Ya’ni, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini taraqqiy qildirishning xorij tajribasi qator xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shular bilan birgalikda, transport infratuzilmasining samarali ishlashi turli ijobiy natijalarni yaratib beradi.

Dissertatsiyaning **“Mamlakatimiz iqtisodiyotida transport infratuzilmasini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan foydalanish holati tahlili, mamlakat iqtisodiyotida transport infratuzilmasi rivojlanishini tartibga solish tizimi hamda transport infratuzilmasining rivojlanish samaradorligi ko‘rsatkichlarini baholash masalalari tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda transport infratuzilmasi tarkibi mamlakat iqtisodiyoti va aholi harakatchanligini ta’minlaydi. Bu bo‘yicha O‘zbekistonda transport infratuzilmasining tarkibiy qismlari quyidagicha tavsiflanadi (2-jadval).

## 2-jadval

### O‘zbekistonda transport infratuzilmasining tarkibiy qismlari haqida ma’lumot<sup>9</sup>

№	Tarkibiy qismlar	Qisqacha tavsifi
1	Avtomobil transporti	Yo‘llar, avtomagistralar, ko‘priklar va avtomobil xizmatlari tizimi
2	Temir yo‘l transporti	Temir yo‘l tarmoqlari, vokzallar va yuk/yo‘lovchi tashish tizimi
3	Havo transporti	Aeroportlar, aviakompaniyalar va havo yo‘llari
4	Suv transporti	Daryo portlari va suv orqali yuk tashish (asosan cheklangan)
5	Quvur transporti	Neft, gaz va boshqa resurslarni quvur orqali uzatish tizimi
6	Logistika markazlari	Yuklarni saqlash, qayta taqsimlash va yetkazib berish markazlari
7	Axborot va boshqaruv tizimlari	Transportni nazorat qilish va boshqarish texnologiyalari

Mazkur 2-jadvalga asosan, O‘zbekistonda transport infratuzilmasi strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning geografik joylashuvi, ya’ni Markaziy Osiyo markazida joylashganligi uni tranzit davlat sifatida rivojlantirish imkonini beradi. Bu borada avtomobil transporti eng keng tarqalgan bo‘lib, ichki harakatda asosiy o‘rin tutadi. Temir yo‘l tizimi esa yirik shaharlar va qo‘shni davlatlar bilan bog‘lab, eksport-importda muhim o‘rin tutadi. Havo transporti esa xalqaro aloqalar va tezkor tashish uchun xizmat qiladi. Quvur transporti bo‘lsa energetika sohasida muhim rol o‘ynaydi. Logistika markazlari esa savdo va tranzitni samarali tashkil etishga imkon beradi.

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi.

Ushbu sohalarning o'z ichiga birlashtirgan holda O'zbekistonda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi yo'llar qurish va xalqaro transport yo'laklariga integratsiyalash ishlari jadal amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini izchil va barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan oqilona foydalanish dolzarb vazifalardan biridir. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, modernizatsiya jarayonlari, xalqaro transport yo'laklariga integratsiyalashish bo'yicha tashabbuslar transport-kommunikatsiya tarmoqlarining yanada samarali ishlashi uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bu borada mamlakatimizda logistikani, transport infratuzilmalarini rivojlantirish va xalqaro aloqalarini mustahkamlash uchun bir qator ko'rsatmalar ishlab chiqilgan<sup>10</sup>. Bu orqali transport infratuzilmasi holati, uning iqtisodiyot tarmoqlari bilan o'zaro bog'liqligi, mavjud salohiyatidan foydalanish darajasi hamda mavjud muammolar chuqur tahlil qilinadi.

Transport infratuzilmasidan samarali foydalanish mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, kimyo, metallurgiya, neft-gaz va boshqa sohalardagi mahsulotlarini jahon bozorlariga raqobatbardosh narxlarda yetkazib berish ko'p jihatdan transport xarajatlarining maqbulligiga bog'liq. Transport xarajatlarining kamayishi mahsulotning umumiy tannarxiga bevosita ta'sir qiladi. Bu esa eksport hajmini oshiradi va milliy iqtisodiyotga valyuta tushumlarini ko'paytiradi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, transport-logistika xarajatlarini 10-15 foizga qisqartirish orqali yillik eksport hajmini sezilarli oshirish imkoniyati mavjud.

Transport infratuzilmasi rivoji ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirga egaligi bilan ajralib turadi. Transport tizimining kengayishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholining harakatchanligi ortadi, ijtimoiy xizmatlar (ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo va madaniyat) kabilardan foydalanish imkoniyatlari yaxshilanadi. Ayniqsa, qishloq hududlarining yirik shaharlar bilan bog'lanishi aholi turmush darajasining oshishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Transport infratuzilmasining barqaror rivojlanishi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga hissa qo'shadi. Bu borada mamlakatimizda 2010-2024-yillarda amalga oshirilgan transport xizmatlari hajmi tahlil qilindi (3-jadval).

### 3-jadval

#### Mamlakatimizda 2010-2024-yillarda amalga oshirilgan transport xizmatlari hajmi, mlrd.so'mda<sup>11</sup>

№	Hududlar nomi	2010-y.	2012-y.	2014-y.	2016-y.	2018-y.	2020-y.	2022-y.	2024-y.
	O'zbekiston Respublikasi	10524,4	16498,8	23781	30617,8	44159,4	53662,9	83985,6	146736,3
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	231	495,7	725,8	973,3	1292,8	1673,4	2867	4077,1
2	Andijon viloyati	395,9	673,5	1122	1697,8	1906,6	2479,7	3589,9	6473,3
3	Buxoro viloyati	391,4	622,5	1018,8	1456,4	1771,5	2238,4	3298,1	5686,2
4	Jizzax viloyati	118,1	221,1	354,3	518,9	611,9	826,8	1182	2140,3
5	Qashqadaryo viloyati	349,2	575,9	976,9	1431,3	1636,6	2171,7	3405,2	5703

<sup>10</sup> Karriyeva B.K. O'zbekistonda logistika va transport infratuzilmalarini rivojlantirish yo'nalishlari. // Academic research in educational sciences, Volume2, Issue4, 2021. ISSN: 2181-1385, Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021, 5.723

<sup>11</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>

6	Navoiy viloyati	188,7	305,8	411,7	617,3	801,6	998,5	1541,3	3064,2
7	Namangan viloyati	224,5	383	629,3	1053	1246	1632,1	2624,7	4802,2
8	Samarqand viloyati	685	1062	1692,1	2369,2	2764	3371,1	5383,4	10080,1
9	Surxondaryo viloyati	234,3	383,6	622,3	870,2	996,6	1252,6	1922	3096,7
10	Sirdaryo viloyati	93	151,1	217,5	322,4	398,5	526,9	646,8	1113,5
11	Toshkent viloyati	848,1	1184,6	1830,5	2763,2	3042	4018,4	5930,2	10374,6
12	Farg'ona viloyati	421,4	745,7	1216,8	1822,8	2088,8	2664,3	4190,1	7184,6
13	Xorazm viloyati	354,2	454,2	712,9	1085	1241,9	1568,3	2432	4251,9
14	Toshkent shahri	1454,9	2280	3301,3	4295,5	6502,6	8114,7	14363	29153,6

Ushbu 3-jadvalga asosan, 2010-2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ko'rsatkichlar izchil va barqaror o'sib borgan. 2010-yilda umumiy hajm 10,5 trln. so'm atrofida bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 146,7 trln. so'mga yetgan. Bu esa 14 yil ichida o'sish 14 baravardan ko'p bo'lganini ko'rsatadi. O'sishning bunday tezligi iqtisodiy faollik, investitsiyalar, infratuzilma kengayishi va hududiy rivojlanish sur'atlarining kuchayganidan dalolat beradi. Shuningdek, tadqiqot ishida mamlakatimizda 2010-2024-yillarda amalga oshirilgan avtomobil transportining yuk aylanmasi hajmi ham tahlil qilindi. Ushbu ko'rsatkich 2010-yilda 9076,3 mln. t-km.ni tashkil etgan bo'lsa-da, 2024-yilga kelib esa 24364 mln. t-km. ga yetgan. Bu davrda absolyut o'sish 9076,3 mln. t-km. dan 24364 mln. t-km. ga yetgan yoki 15287,7 mln. t-km.ga o'sgan. O'sish sur'ati qariyb 2,6 baravar o'sishni tashkil etgan. Ushbu sektor yilma-yil uzluksiz o'sib borishi iqtisodiy faollik, transport xizmatlariga talab oshishi va infrastruktura kengayishini ko'rsatadi.

Transport infratuzilmasi mamlakatimiz iqtisodiyotining uzviy qismi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlari uzluksizligini ta'minlash, hududlararo integratsiyani kuchaytirish, eksport-import oqimlarini samarali boshqarish hamda aholi harakatchanligini oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu esa mamlakat ichida va global miqyosda bozor integratsiyasi jarayonlari, yuk tashish oqimining ko'payishi, fuqarolarning harakatchanligi va dunyo bo'ylab buyumlar internetining rivojlanib borayotgan transport infratuzilmasini talab qilishi bilan asoslanadi. Transport tizimining rivojlanishi ijtimoi-iqtisodiy barqarorlik, xalqaro integratsiya va mintaqaviy hamkorlik uchun muhim strategik omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirishni tartibga soluvchi tizim oxirgi yillarda tubdan takomillashtirilmoqda. Xususan, tashqi savdo transport yo'laklarini yanada diversifikatsiyalash uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlarni yaratish, mamlakatimiz tranzit salohiyatini oshirish, mahalliy transport-logistika kompaniyalarini rivojlantirish hamda ularning tashqi va ichki bozorlardagi raqobatdoshligini yuksaltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3422-son Qarori<sup>12</sup> qabul qilindi.

Biroq, bugungi kunda mamlakatimizda transport infratuzilmasini tartibga solish tizimida qator quyidagi muammolar ko'zga tashlanadi:

- avtomobil yo'llarining sifati va eskirishi. Bu qishloq yo'llari tarmoqlari yetarli darajada modernizatsiya qilinmaganligi va og'ir yuk mashinalari tufayli tez eskirish holatlari mavjudligi bilan izohlanadi.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabdagi "2018-2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3422-son Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-3436209>

- transport parkining eskirishi. Unga avtomobil transportida 40 foizdan ziyod mashinalar normativ xizmat muddatidan oshganligi, temir yo‘l vagonlarining eskirganligi, raqamli tizimlarning to‘liq joriy etilmaganligi, logistika jarayonlari hanz qisman qo‘lda yuritilishi va ma‘lumot almashinuvining sekinligi kabilar xosdir.

- bojxona jarayonlaridagi kechikishlar. Ushbu muammo tranzit yuklarning ba‘zi yo‘nalishlarda mediant vaqti yuqoriligi va terminal infratuzilmasi yetishmovchiligi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

- xususiy sektor ishtirokining yetarli emasligi. Bu holat yirik loyihalar bo‘yicha investitsiya xavfi yuqoriligini asoslaydi.

Ushbu muammolarni hal qilish borasida transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha milliy ustuvor loyihalar paketini kengaytirish, avtomobil va temir yo‘l tarmoqlarida raqamli integratsiyalashgan logistika platformasini yaratish, transport tariflarini xalqaro raqobat talablariga mos optimallashtirish, xususiy logistik kompaniyalar faoliyatini kengaytirish uchun soliq imtiyozlari va soddalashtirilgan litsenziyalash, yashil transport texnologiyalarini joriy etish, sheriklik loyihalari asosida strategik transport obyektlarini modernizatsiya qilishni jadallashtirish hamda tranzit yo‘laklar bo‘yicha xalqaro kelishuvlar doirasida tariflarni pasaytirish kabi choralarni qo‘llash talab qilinadi. Shulardan kelib chiqib, mamlakat iqtisodiyotida transport infratuzilmasi rivojlanishini tartibga solish tizimi quyidagi tavsiflarga ega bo‘ladi (4-jadval).

#### 4-jadval

#### Mamlakat iqtisodiyotida transport infratuzilmasi rivojlanishini tartibga solish tizimi<sup>13</sup>

Tartibga solish yo‘nalishi	Asosiy mas‘ul tashkilotlar	Mazmuni va vazifalari
Transport siyosatini ishlab chiqish	O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Transport infratuzilmasining rivojlanish strategiyasini belgilash va umumiy siyosatni shakllantirish
Avtomobil yo‘llarini boshqarish va modernizatsiya qilish	O‘zavtoyoyol agentligi, Mahalliy hokimliklar	Yo‘l qurish, ta‘mirlash, rekonstruksiya qilish va yo‘llar sifatini nazorat qilish
Temir yo‘l infratuzilmasi boshqaruvi	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	Temir yo‘l tarmoqlarini rivojlantirish, yuk va yo‘lovchi tashishni tartibga solish va logistika markazlarini boshqarish
Havo transporti infratuzilmasi	“Uzbekistan Airports”, “Uzbekistan Airways”	Aeroportlarni rivojlantirish, havo yo‘llarida xavfsizlikni ta‘minlash va aviaparkni modernizatsiya qilish
Quvur transporti va energetik logistika	“O‘ztransgaz”, Energetika vazirligi	Neft, gaz va yonilg‘i tashish quvurlarini boshqarish
Transport va logistika xizmatlarini tartibga solish	O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi	Yuk tashish, tranzit, bojxona tartiblarini soddalashtirish va logistika xizmatlarini muvofiqlashtirish

<sup>13</sup> Muallif ishlanmasi.

Transport xavfsizligini ta'minlash	Yo'l harakati xavfsizligi xizmati, Transport nazorati inspeksiyasi	Yo'l harakati qoidalarini nazorat qilish hamda yuk va yo'lovchi transportida xavfsizlik standartlarini belgilash
Raqamlashtirish va IT-boshqaruv	O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi	Elektron logistika, raqamli bojxona, transport monitoring tizimlari va onlayn kuzatuv platformalarini amalga oshirish
Davlat-xususiy sheriklik (DXSh)	DXSh agentligi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar vazirligi	Transport loyihalariga xususiy investorlarni jalb qilish, yangi terminal va yo'llarni DXSh asosida qurish
Tariflar va narxlarni tartibga solish	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi	Yo'lovchi va yuk tashish tariflarini belgilash hamda narxlar barqarorligini ta'minlash
Xalqaro transport yo'laklari bo'yicha hamkorlik	O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi	Xalqaro tranzit shartnomalarini tuzish hamda transport koridorlarida integratsiya

Shularga asosan, mamlakatimizda transport infratuzilmasi rivojlanishini tartibga solish tizimi oxirgi yillarda sezilarli darajada takomillashib, zamonaviy boshqaruv tamoyillariga asoslangan kompleks mexanizm sifatida shakllanmoqda. Chunki, transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, logistika zanjirlarini takomillashtirish, xalqaro tranzit salohiyatidan foydalanishni kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, hududlar rivojlanishiga, eksport imkoniyatlarining kengayishiga hamda aholi farovonligining oshishiga xizmat qilmoqda.

Transport infratuzilmasi iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri bo'lib, uning samarali faoliyati barcha xo'jalik sohalari, aholining ijtimoiy hayoti, ishlab chiqarish jarayonlari va hududiy integratsiyaning uzluksizligini ta'minlashda muxim o'rin tutadi. Shu bois, transport infratuzilmasining rivojlanish samaradorligini baholash davlat siyosati, investitsiya rejalashtiruv va mintaqaviy rivojlanish strategiyalarining eng muhim yo'nalishlaridan biridir.

Samaradorlikni baholash tizimi transport tarmoqlari holati, ulardan foydalanish darajasi, logistika xizmatlarining sifati, iqtisodiy natijadorlik, resurslardan foydalanish samarasi va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasi bilan bog'liq har tomonlama ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Uning tarkibiga transport infratuzilmasi samaradorligini baholovchi asosiy ko'rsatkichlar, ularning o'lchov usullari, iqtisodiy mazmuni, xalqaro tajribadagi yondashuvlar hamda amaliyotdagi qo'llanilishi kiradi.

Transport infratuzilmasi mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanch ustunlaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlari, savdo-sotiq, logistika, aholining ijtimoiy faoliyati hamda hududiy integratsiyani ta'minlab beradi. Uning samarali rivojlanishi iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishiga, aholi harakatchanligi va hayot sifatining yaxshilanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois transport infratuzilmasi rivojlanishining samaradorligini baholash tizimi barcha rivojlangan davlatlarda strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalish hisoblanadi.

Darhaqiqat, transport infratuzilmasi samaradorligini baholash orqali amaliy natijalarga erishiladi. Ya'ni, transport infratuzilmasining samarali rivojlanishi iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, logistika xarajatlarini kamaytiradi, eksport va import hajmini kengaytiradi, hududlararo tenglikni oshiradi, transport xizmatlari sifatini yaxshilaydi, xalqaro tranzitdan tushadigan daromadni oshiradi va turistlar oqimini ko'paytiradi. Ushbu samaradorlikni baholash asosida investitsiya siyosati optimallashtiriladi, moliyaviy resurslar to'g'ri taqsimlanadi va transport loyihalarining ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi.

Shulardan kelib chiqib, dissertatsiyada transport infratuzilmasidan foydalanish ko'rsatkichlarini "yuqori" (0,8-1), "o'rta" (0,5-0,7) va "quyi" (0,1-0,4) darajalarda baholash usuli va mexanizmi taklif etildi (5-jadval).

### 5-jadval

#### Transport infratuzilmasidan foydalanish ko'rsatkichlarini turli darajalarda baholash usuli va mexanizmi<sup>14</sup>

Indeks qiymati	Baholash darajasi	Tavsif	Transport infratuzilmasi holati
0,8-1,0	Yuqori daraja	Infratuzilma samarali va to'liq quvvatda ishlaydi	Yuk va yo'lovchi oqimi barqaror, yo'llar yetarli, transport texnikasi zamonaviy va logistik xizmatlar rivojlangan bo'ladi
0,5-0,7	O'rta daraja	Infratuzilmadan foydalanish qoniqarli bo'lsa-da, ammo ayrim cheklovlar mavjud bo'ladi	Ba'zi yo'llar eskirgan va transport parkining bir qismi yangilanishga muhtoj bo'lib, logistika tizimi to'liq integratsiyalashmagan bo'ladi
0,1-0,4	Quyi daraja	Infratuzilmadan foydalanish sust bo'lib, samaradorlik ham past bo'ladi	Yo'llar sifati past, texnika eskirgan, transport tizimi yuklamani ko'tara olmaydi va xizmatlarda uzilishlar mavjud bo'ladi

Shuningdek, transport infratuzilmasidan foydalanish ko'rsatkichlari quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Indeks = \frac{Foydalanilgan\ quvvat}{Jami\ mavjud\ quvvat} \quad (1)$$

Yoki kengaytirilgan varianti quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

$$Indeks = \frac{Yuk\ aylanmasi + Yo'lovchi\ aylanmasi + Infratuzilmadan\ foydalanish\ darajasi}{Normativ\ quvvat} \quad (2)$$

Agar indeks 0,8-1 ga teng bo'lsa, yuqori bo'ladi, 0,5-0,7 atrofida bo'lsa, o'rta bo'ladi va 0,1-0,4 ga teng bo'lsa, past bo'ladi.

Baholash mexanizmi esa transport turiga ko'ra ma'lumot to'plashga asoslanadi. Bu avtomobil yo'llari, temir yo'l, havo transporti, suv transporti va logistika tarmoqlariga hamda quvvat va foydalanish hajmini aniqlashga qaratiladi. Har bir hudud, tarmoq va transport turiga qarab indeks aniqlanadi. I

Transport infratuzilmasidan foydalanish darajasini indekslar orqali baholash infratuzilma samaradorligini aniq aniqlash, investitsiyalarni oqilona taqsimlash va transport tizimi rivojlanishini strategik rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 0,8-1 darajasi tizimning yetarlicha rivojlanganini ko'rsatsa-da, 0,5-0,7 oraliq ko'rsatkich modernizatsiya zarurligini va 0,1-0,4 esa transport tizimi qoniqarsiz ishlayotganini bildiradi. Natijada, mintaqalarda transport tizimining rivojlanish

<sup>14</sup> Muallif ishlanmasi.

darajasini ob'ektiv baholash va samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning "**Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish yo'nalishlari va istiqbollari**" deb nomlangan uchinchi bobda Xorazm viloyati mintaqasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilma tarmog'i holati tahlili, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirishning innovatsion yo'nalishlari hamda mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish istiqbollari aniqlangan.

Bugungi kunda mintaqaviy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri bu transport infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi hisoblanadi. Bu borada Xorazm viloyati geoiqtisodiy jihatdan O'zbekiston Respublikasining g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, yirik sanoat markazlari va eksport bozorlariga yetib borishda transport tarmog'ining sifati va samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyati, xususan qishloq xo'jaligi (paxta, galla va meva-sabzavot), chorvachilik, oziq-ovqat sanoati, turizm va xizmatlar sohalari transport infratuzilmasi bilan bevosita bog'liq. Shu bois, viloyatda mavjud avtomobil yo'llari tarmog'i, temir yo'l aloqalari, xalqaro aeroport, shaharlararo va tumanlararo yo'lovchi tashish tizimi holatini o'rganish mintaqani barqaror rivojlantirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Shular bilan birgalikda, Xorazm viloyati transport infratuzilmasi iqtisodiy barqarorlikka ham hissa qo'shmoqda. Bu borada transport tizimining rivojlanishi quyidagi sohalardagi iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- savdo va xizmatlar sektori. Transport xarajatlari kamaygach, narxlar barqarorlashadi, raqobat kuchayadi.

- eksport salohiyati. Yuk tashish xarajati kamayishi eksport qiluvchilar uchun qulaylik yaratadi.

- investitsiya muhitining yaxshilanishi. Infratuzilmasi rivojlangan hududlar investorlarga jozibador hisoblanadi.

- turizmning barqaror rivoji. Transport turistlar sonining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

- aholi farovonligi. Yaxshi transport - yaxshi turmush sifati, arzon va tezkor harakatlanish hamda sog'liq uchun qulay muhitni anglatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Xorazm viloyati mintaqasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilma tarmog'i holatida uning turli yo'nalishlarini tahlil qilib chiqamiz. Xususan, Xorazm viloyatida 2010-2024-yillarda avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining dinamik qatori tahlil qilindi (6-jadval).

**6-jadval**

**Xorazm viloyatida 2010-2024-yillarda avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining dinamik qatori, ming yo‘lovchi-km<sup>15</sup>**

Hududlar nomi	2010-y.	2012-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>320089</b>	<b>377381</b>	<b>429358</b>	<b>460852</b>	<b>695491</b>	<b>712205</b>	<b>731935</b>	<b>755654</b>	<b>699311</b>	<b>808614</b>	<b>841255</b>	<b>857188</b>	<b>898409</b>
	<b>6,0</b>	<b>3,0</b>	<b>9,2</b>	<b>2,1</b>	<b>3,4</b>	<b>4,5</b>	<b>1,4</b>	<b>5,5</b>	<b>6,7</b>	<b>9,1</b>	<b>5,0</b>	<b>5,1</b>	<b>8,3</b>
Urganch shahri	472088,5	556585,9	633245,8	685694,1	139524,7,8	142857,6,5	133063,4,5	147355,6,7	127494,6,1	150651,0,4	161832,9,9	165975,5,1	173667,1,7
Xiva shahri					274401,9	283630,3	286311,2	365219,8	129569,2	266683,1	253285,5	257835,9	318605,6
Bog‘ot tumani	276626,8	326139,3	371059,2	393276,3	283951,4	290405,6	309510,6	312985,8	296570,1	339237,8	357365,3	362549,3	379191,0
Gurlan tumani	253378,5	298729,8	339874,6	366804,3	622338,2	649318,6	671812,0	680317,6	648642,1	736806,5	759294,2	771985,0	810420,3
Qo‘shko‘pir tumani	259622,0	306090,8	348249,4	376793,4	448158,7	461390,6	481982,2	490317,1	466925,9	531059,1	545844,5	556670,1	582924,9
Urganch tumani	320644,9	378036,0	430103,8	456651,7	603042,0	620311,5	646434,5	664284,9	623111,2	711132,1	734188,4	749740,0	789721,0
Hazorasp tumani	314432,8	370712,0	421771,1	449707,8	888261,0	896977,2	919969,3	965872,7	680816,7	844741,4	764350,2	776505,4	867315,9
Tuproqqal‘a tumani									186637,4	167318,8	327578,7	332788,1	285117,3
Xonqa tumani	299090,8	352624,0	401191,7	426619,0	630315,9	637199,5	673016,3	699513,1	677078,3	754733,6	769070,5	782621,7	823008,9
Xiva tumani	286792,1	338124,0	384694,6	416911,8	557119,3	575855,5	602391,3	544689,1	724352,7	705104,3	758656,6	773507,7	755425,4
Shovot tumani	295325,9	348185,2	396141,6	425198,4	543235,4	560099,5	626916,3	593413,1	587578,3	690233,6	662345,7	674221,7	717608,9
Yangiariq tumani	226177,0	266659,7	303387,3	328640,6	436857,0	441617,8	464095,8	468598,0	403523,1	487912,9	531994,7	536154,3	560816,5
Yangibozor tumani	196716,6	231926,2	263870,0	282224,7	271984,9	276672,0	306277,5	297777,5	293365,6	344675,5	329950,8	337550,7	357270,8

Mazkur 5-jadvalga asosan, 2010-2024-yillarda Xorazm viloyati iqtisodiy ko‘rsatkichlari yilma-yil o‘shib borgan. Ayniqsa, 2016-yildan keyin o‘shish sur‘ati sezilarli tezlashgan. Eng yuqori ulush Urganch shahri va viloyat markazlashgan hududlarga to‘g‘ri keladi. Xususan, Urganch shahrining ko‘rsatkichlari yillar davomida barqaror o‘shib, 2024-yilda hududlar orasida eng yuqori natijalardan biriga ega bo‘lgan. 2016-yilda deyarli barcha tuman va shaharlarda jadal o‘shish qayd etilgan. Bu yilda iqtisodiy faollik yoki statistik metodologiya o‘zgarishi ehtimoli yuqoriligini anglatadi. Ko‘plab hududlarda 2020-yilda pandemiya ta‘siriga xos bo‘lgan pasayish yoki o‘shishning sekinlashuvi kuzatilgan. 2021-2024-yillarda barcha hududlarda ko‘rsatkichlar yana ortgan va 2024-yilda barcha tuman va shaharlarda eng yuqori qiymatlar qayd etilgan. Ayrim hududlarda notekislik kuzatilgan, xususan, Xiva shahri va Tuproqqal‘a tumanida ma‘lum yillarda tanaffus kuzatilgan. Hazorasp, Shovot va Xiva tumanlari esa 2020-yilda pasayishga uchragan bo‘lsa-da, keyingi yillarda tez tiklangan. Shunday ekan, mazkur jadval Xorazm viloyatida so‘nggi 15 yil ichida iqtisodiy faollikning sezilarli darajada o‘sganini, ayniqsa 2016-yildan keyin islohotlar

<sup>15</sup> <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>

va investitsiyalarning ta'siri kuchayganini ko'rsatadi. 2020-yilda qisqa muddatli pasayish bo'lgan, ammo 2021-yildan boshlab barqaror o'sish qayta tiklangan.

Ulardan tashqari, 2010-2024-yillarda Xorazm viloyatining hududlari kesimida asosiy transport infratuzilmasi xarakteristikasi tahlil qilindi. Bu holat quyidagi jadvalda keltirilgan (7-jadval).

### 7-jadval

#### 2010-2024-yillarda Xorazm viloyatining hududlari kesimida asosiy transport infratuzilmasi xarakteristikasi<sup>16</sup>

Hududlar guruhi	Asosiy tuman va shaharlar	Avtomobil yo'llari rivojlaniishi	Temir yo'l infratuzilmasi	Yo'lovchi tashish faolligi	Logistika va tranzit imkoniyati	2010-2024-o'zgarish tendensiyasi
Markaziy	Urganch shahri va Urganch tumani	yuqori (magistral va shahar yo'llari)	mavjud (stansiya)	juda yuqori	yuqori	barqaror o'sish va modernizatsiyaga erishgan
Sanoatga yaqin	Xonqa va Yangiariq tumanlari	o'rta-yuqori	yaqin	yuqori	o'rta	infratuzilma kengaygan
Chegaraga yaqin	Shovot va Gurlan tumanlari	o'rta	qisman	o'rta	yuqori (chegara savdosi)	tranzit ahamiyati oshgan
Qishloq xo'jaligi hududlari	Qo'shko'pir, Hazorasp va Yangibozor tumanlari	o'rta-past	kam	o'rta	past	yo'llar yaxshilangan
Chekka hududlar	Bog'ot va ayrim qishloqlar	past	yo'q	past	past	sekin rivojlanishga erishgan

Ushbu 7-jadvalga asosan, so'nggi yillarda transport sohasida ijobiy dinamika kuzatildi. Jumladan, yuk aylanmasi 2024-yilda o'sish sur'atiga ega bo'lgan va yo'lovchi tashish hajmi ham barqaror o'sgan. Bu esa transport infratuzilmasining faol rivojlanayotganini ko'rsatadi. Markaziy hududlarning ustunligi bo'yicha Urganch shahri va uning atrofi hududlarida transport tarmoqlari eng yaxshi rivojlangan, yo'lovchi oqimi yuqori va logistika markazlashgan. Bu holat urbanizatsiya va iqtisodiy faollik bilan bog'liq. Chegara hududlarining strategik ahamiyati bo'yicha Shovot va Gurlan kabi hududlarda tashqi savdo va tranzit funksiyasi kuchaygan hamda transport infratuzilmasi iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq holda rivojlangan. Qishloq va chekka hududlarda muammolar yuzasidan ichki yo'llar sifati pastroq, jamoat transporti cheklangan va logistika infratuzilmasi yetarli emas. Hamda 2010-2024-yillarda yo'l qurilishi va ta'mirlash ishlari orqali ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan.

Umuman olganda, 2010-2024-yillarda Xorazm viloyati transport infratuzilmasi hududlar kesimida notekis rivojlangan, markaz va chegara hududlarida yuqori hamda chekka qishloqlarda nisbatan past hisoblanadi.

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi.

Fikrimizcha, transport infratuzilmasi holatini yaxshilash uchun transport monitoringi uchun IoT sensorlar joriy etish, yo‘l qatnovini boshqarish uchun sun‘iy intellekt algoritmlari, “yashil transport strategiyasi”ni ishlab chiqish, elektr energiyasi bilan ishlovchi avtobuslar parkini tashkil etish, raqamli logistika tizimlarini joriy etish, viloyatni logistika markaziga aylantirish, hududni “Xiva - Toshkent - Samarqand - Buxoro” turistik halqasiga qo‘shish hamda Yevroosiyo transport yo‘laklari bilan bog‘lash va transchegaraviy savdo yo‘laklarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Xorazm viloyati O‘zbekistonning g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, geografik jihatdan strategik transport yo‘laklari o‘tish nuqtasida joylashgan. Viloyat iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligi, yengil sanoat hamda xizmatlar sohasiga tayanadi. Ushbu sohalarning barqaror rivojlanishi uchun samarali transport infratuzilmasi zarurdir. Shulardan kelib chiqib, mintaqa transport infratuzilmasini takomillashtirishda qator innovatsion yo‘nalishlar mavjud:

- 1) Raqamli monitoring va geospatial tizimlari.
- 2) Smart jamoat transport tizimlari.
- 3) Raqamli logistika markazlari.
- 4) Elektro-va yuqori tezlikli transport.
- 5) Atrof-muhitni muhofaza qiluvchi yechimlar.

Shularga muvofiq, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish quyidagi innovatsion yo‘nalishlarga ega bo‘ladi (8-jadval).

**8-jadval**

**Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirishning innovatsion yo‘nalishlari<sup>17</sup>**


<b>№</b>	<b>Innovatsion yo‘nalishlar</b>	<b>Qo‘llanilayotgan texnologiyalar</b>	<b>Iqtisodiy samarasi</b>	<b>Barqaror rivojlanishga ta’siri</b>
1	Raqamli transport boshqaruvini joriy qilish	GPS, GIS, Big Data va IoT	Transport xarajatlari kamayadi va vaqt tejaladi	Samaradorlik oshadi va resurslar tejaladi
2	Smart jamoat transportidan foydalanish	Elektroavtobuslar va elektron bilet	Aholi harakatchanligi oshadi	Atrof-muhitga salbiy ta’sir kamayadi
3	Avtomobil yo‘llarini modernizatsiya qilish	Innovatsion qurilish materiallari	Logistika xarajatlari pasayadi	Hududlar o‘rtasida iqtisodiy integratsiya kuchayadi
4	Temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish	Elektr tyagasi va avtomatik signalizatsiya	Yuk va yo‘lovchi tashish hajmi ortadi	Energiya tejamkorligi ta’minlanadi
5	Logistika markazlarini rivojlantirish	Raqamli omborlar va multimodal tizim	Eksport salohiyati oshadi	Savdo barqarorligi ta’minlanadi
6	Ekologik transport yechimlarini shakllantirish	Elektromobillar va gibrid transport	Yoqilg‘i xarajatlari kamayadi	Karbon chiqindilari qisqaradi

<sup>17</sup> Muallif ishlanmasi.

7	Qishloq hududlarini transport bilan qamrab olish	Yangi yo‘llar	mahalliy	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorga chiqadi	Ijtimoiy barqarorlik ta‘minlanadi
---	--	---------------	----------	--	-----------------------------------

Ushbu 8-jadvalga asosan, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish muhim strategik omil hisoblanadi. Unda keltirilgan transport sohasida qo‘llanilayotgan asosiy innovatsion yo‘nalishlar, ularning iqtisodiy samarasi hamda barqaror rivojlanishga ta‘siri tizimli ravishda aks ettirilgan.

Olib borilgan tahlillarga asosan, mintaqa iqtisodiyotida transport infratuzilmasi va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanishning tashkiliy-integratsion modeli taklif etildi (2-rasm). Ushbu 2-rasmga asosan, mintaqa iqtisodiyotida transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish iqtisodiy o‘shish va barqaror rivojlanishning muhim sharti bo‘lib hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan tashkiliy-integratsion model transport infratuzilmasini rivojlantirishda ishtirok etuvchi asosiy sub‘ektlar, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va integratsiya jarayonlarini tizimli ravishda aks ettiradi.



**2-rasm. Mintaqa iqtisodiyotida transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishning tashkiliy-integratsion modeli<sup>18</sup>**

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish asosida prognozlashtirish amalga oshirildi. Prognoz natijalarining iqtisodiy tahlili amalga oshirildi. Mazkur tadqiqotda transport sohasi ko‘rsatkichlarini prognoz qilish uchun tendensiyaga asoslangan ekonometrik usul qo‘llanildi. Aniqroq aytganda, vaqt qatorlarining barqaror o‘shish tendensiyasi mavjudligi sababli chiziqli trend modeli tanlandi. Vaqt omili sifatida 2014-yilda  $t = 1$  ni va 2024-yilda esa  $t = 11$  ni tashkil etdi.

<sup>18</sup> Muallif ishlanmasi.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida 2026-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqildi (9-jadval).

### 9-jadval

#### Xorazm viloyati mintaqasida transport infratuzilmasini takomillashtirish ko'rsatkichlarining 2026-2030-yillargacha ishlab chiqilgan prognoz qiymatlari haqida ma'lumot<sup>19</sup>

Yillar	Y - transport xizmatlari hajmi, mlrd. so'mda	X <sub>1</sub> - yo'lovchi aylanmasi, ming yo'l-km.	X <sub>2</sub> -yo'lovchi tashish, ming kishi	X <sub>3</sub> - yuk aylanmasi, ming t-km.	X <sub>4</sub> - yuk tashish, ming tonna
2026	4836	9360000	461200	1335000	40700
2027	5192	9720000	468400	1393000	41200
2028	5548	10080000	475600	1451000	41700
2029	5904	10440000	482800	1509000	42200
2030	6260	10800000	490000	1567000	42700

Ushbu 9-jadvalga asosan, amalga oshirilgan prognoz natijalariga ko'ra, 2026-2030-yillar oralig'ida transport xizmatlari hajmi qariyb 1,3 barobarga o'sishi kutilmoqda. 2030-yilga borib, yo'lovchi aylanmasi 10,8 mlrd. yo'lovchi-km.ga yetishi prognoz qilinmoqda.

Ushbu prognoz ko'p omilli korrelyatsiya-regressiya modeli asosida ham amalga oshirildi. Ya'ni, ushbu tadqiqotda avtomobil transporti faoliyati ko'rsatkichlarining transport xizmatlari hajmiga ta'sirini baholovchi ko'p omilli chiziqli korrelyatsiya-regressiya modeli qo'llanildi:

$$Y = -1845,6 + 0,00021X_1 + 0,0048X_2 + 0,0016X_3 + 0,028X_4 \quad (4)$$

bu yerda: Y - amalga oshirilgan transport xizmatlari hajmi, mlrd. so'mda; X<sub>1</sub> - avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasi, ming yo'lovchi-km.; X<sub>2</sub> - avtomobil transporti yo'lovchi tashish hajmi, ming kishi; X<sub>3</sub> - avtomobil transporti yuk aylanmasi, ming t.-km.; X<sub>4</sub> - avtomobil transporti yuk tashish hajmi, ming tonna.

Regressiya koeffitsientlarining iqtisodiy talqiniga kelsak, yo'lovchi aylanmasi 1 ming yo'lovchi-km.ga oshsa, transport xizmatlari hajmi o'rtacha 0,00021 mlrd. so'mga oshadi.

Ulardan tashqari, Xorazm viloyatining avtomobil transporti infratuzilmasining ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish asosida prognoz qiymatlarini ishlab chiqish maqsadida iqtisodiy ko'rsatkichlar tanlab olindi. Gretl dasturida avtomobil transporti infratuzilmasining yuk tashish bo'yicha dinamik qatori ko'rsatkichining modeli tuzildi. Ushbu tuzilgan modelning umumiy ko'rinishi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (10-jadval).

<sup>19</sup> Muallif ishlanmasi.

## 10-jadval

### 1-ARMA modelining ko‘rinishi, 2010-2024-yillar orasidagi kuzatuvlardan foydalanilgan ( $t = 15$ ). Bog‘liq o‘zgaruvchi: Avtomobiltransporttingyukt, Standart xatolar GESSian matritsasi asosida hisoblangan<sup>20</sup>

	Koeffitsient	Standart xato	z-statistika	p-qiymat	
const	39894,1	1840,33	21,68	<0,0001	***
phi_1	0,267798	0,410071	0,6531	0,5137	
theta_1	0,223267	0,389559	0,5731	0,5666	
Bog‘liq o‘zgaruvchining o‘rtacha qiymati	39969,13		Bog‘liq o‘zgaruvchining standart og‘ishi	5201,506	
O‘rtacha innovatsiyalar	51,21740		Innovatsiya standart og‘ishi	4416,839	
R-kvadrat	0,228234		Tuzatilgan R-kvadrat	0,168868	
Logaritmik ehtimollik	-147,3026		Akaike mezoni (AIC)	302,6052	
Shvars mezoni	305,4374		Hennan-Quinn mezoni (HQ)	302,5751	
		Haqiqiy qism	Murakkab qismi	Modul	Tebranish
AR					
	1-ildiz	3,7342	0,0000	3,7342	0,0000
MA					
	1-ildiz	-4,4789	0,0000	4,4789	0,5000

10-jadvalda asosan, berilgan ARMA (1,1) modeli uning natijalariga to‘g‘ri keladi. Shu asosida model formulasini yozib, qisqacha va aniq tahlil qilaman.

Modelning matematik ko‘rinishiga kelsak, berilgan koeffitsientlarga asosan model quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

$$Y_t = 39894,1 + 0,2678Y_{t-1} + \varepsilon_t + 0,2233\varepsilon_{t-1} \quad (5)$$

bu yerda:  $Y_t$  - bog‘liq o‘zgaruvchi (joriy davr qiymati),  $Y_{t-1}$  - bog‘liq o‘zgaruvchining 1-lag qiymati,  $\varepsilon_t$  - joriy davr tasodifiy xatolik (innovatsiya),  $\varepsilon_{t-1}$  - 1-lag innovatsiya, 39894,1 - konstanta (o‘rtacha daraja). Bu borada hisoblangan prognoz qiymatlari aniqlandi (11-jadval).

## 11-jadval

### Xorazm viloyatida avtomobil transporti infratuzilmasining yuk tashish ko‘rsatkichlarining 2026-2030-yillardagi prognoz qiymatlari 95 % ishonchli intervallar uchun, $z(0,025) = 1,96$ <sup>21</sup>

Yillar	Prognozlantirish	Standart xatolik	95 % ishonch oralig‘i
2026	39888,9	4920,65	(30244,6, 49533,3)
2027	39892,7	4954,82	(30181,4, 49604,0)
2028	39893,7	4957,26	(30177,7, 49609,8)
2029	39894,0	4957,43	(30177,6, 49610,4)
2030	39894,0	4957,45	(30177,6, 49610,5)

Ushbu 11-jadvalga asosan, prognoz qiymatlarining umumiy tendensiyasini kuzatadigan bo‘lsak, 2026-2030-yillar davomida prognoz qilingan ko‘rsatkich 39893 - 39894 atrofida deyarli o‘zgarmas holatda saqlanib qolmoqda. Demak, avtomobil transportida yuk tashish hajmi o‘rtacha barqaror daraja atrofida shakllanishi kutilmoqda. Bu prognoz davri uzaygan sari noaniqlikning ortib, keyin barqaror holatga kelganini anglatadi.

<sup>20</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>21</sup> Muallif ishlanmasi.

## XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Transport infratuzilmasi mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun asosiy vosita hisoblanadi. U hududlararo logistika oqimlarini ta'minlash, yo'lovchi va yuk tashishni samarali boshqarish, ishlab chiqarish va savdo faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Uning samarali faoliyati ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlab, resurslar harakatini tezlashtiradi hamda logistika xarajatlarini kamaytiradi.

2. Transport tarmoqlarining rivojlanganligi orqali mintaqaning raqobatbardoshligi ortib, iqtisodiy o'sish barqaror va uzluksiz tus oladi. Shu bilan birga, rivojlangan transport tizimi hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtiradi.

3. Dissertatsiyada mavjud tamoyillarni tizimli qo'llash asosida transport infratuzilmasining mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan kompleks ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqildi. Natijada, transport infratuzilmasi mintaqa iqtisodiy rivojlanishining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilib, transport siyosatini barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq shakllantirish imkoniyati yaratildi.

4. Transport infratuzilmasining mavjud imkoniyatlarini tahlil qilish natijalari O'zbekiston iqtisodiy tizimida transport tarmoqlarining ishlab chiqarish, savdo, logistika faoliyatini qo'llab-quvvatlash va hududlararo integratsiyani ta'minlash borasida strategik ahamiyatga ega ekanligini namoyon qiladi. So'nggi yillarda avtomobil va temir yo'l infratuzilmasi modernizatsiya qilinib, yangi yo'nalishlar barpo etildi va aeroportlar faoliyati kengaytirildi, bu esa iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qilmoqda. Shu jarayonda Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSh, Singapur va Xitoy tajribalari o'rganildi.

5. Transport infratuzilmasini hududlar faoliyatida tartibga solish tizimi xavfsiz va samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda davlat siyosati transport tizimini boshqarish, me'yoriy standartlarni belgilash, logistika infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etish va transport xavfsizligini ta'minlash orqali infratuzilma rivojini tartibga soladi.

6. Transport infratuzilmasining rivojlanish samaradorligini baholash ko'p parametrlil yondashuv orqali amalga oshiriladi. Shu yondashuvga ko'ra, transport infratuzilmasidan foydalanish darajasi "yuqori" (0,8-1), "o'rta" (0,5-0,7) va "quyi" (0,1-0,4) ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi. Ushbu baholash tizimi transport infratuzilmasining raqobatbardoshligini oshiradi va milliy transport-logistika tizimining samarali rivojlanishiga imkon yaratadi.

7. Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasi muhim tayanch omil sifatida namoyon bo'ladi. Mavjud transport tarmoqlari hududlararo va ichki iqtisodiy aloqalarni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va mintaqaviy hamda xalqaro transport yo'laklari bilan integratsiyani kuchaytirish

Xorazm viloyatining uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim shart hisoblanadi.

8. Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda transport infratuzilmasini takomillashtirishning innovatsion yo'nalishlari zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, raqamli tizimlar orqali boshqaruvni optimallashtirish va logistika jarayonlarini samarali tashkil etishga qaratilgan. Ushbu yo'nalishlar transport tarmog'ining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu asosda, transport infratuzilmasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratilgan tashkiliy-integratsion model taklif etildi. Natijada transport tarmoqlari, logistika markazlari va ishlab chiqarish sohalari o'zaro hamkorlikni yagona tizim asosida boshqaradi.

9. Mintaqa transport tizimi samaradorligini raqamli ko'rsatkichlar yordamida baholash, uning iqtisodiy ta'sirini aniqlash va rivojlanish strategiyalarini ilmiy asosda shakllantirish mumkin. Shu yo'nalishda transport infratuzilmasi rivojlanishining 2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, mintaqada transport siyosatini amalga oshirish va uzoq muddatli strategik rejalashtirish tizimi yuzaga keladi. Bu bilan barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi va transport infratuzilmasining samaradorlik ko'rsatkichlarini 1,3 barobarga oshirish, logistika oqimlarini optimallashtirish hamda hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytirishga zamin yaratadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.1.06.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

---

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ АБУ  
РАЙХАНА БЕРУНИ**

**КУЗИБОВ УМАРБЕК УЛУГБЕКОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ ДЛЯ  
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ  
(НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**08.00.12 – Региональная экономика**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по экономическим  
наукам**

**Ургенч – 2026**

**Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2026.1.PhD/Iqt6259.**

Докторская диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни.

Аннотация диссертации размещена на трёх языках (узбекском, русском и английском (краткое изложение)) на официальном сайте Научного совета ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)), а также на информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Назарматов Ахунджон Сотвордиевич**  
доктор экономических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** **Байхонов Баходиржон Турсунбаевич**  
доктор экономических наук, профессор.  
**Кадиров Фаррух Эргаш угли**  
доктор экономических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2026 года в \_\_\_\_ : \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/27.12.2025.I.06.04 по присуждению учёных степеней при Ургенчском государственном университете по имени Абу Райхан Беруни. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-57-00, e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета по имени Абу Райхан Беруни. (зарегистрирована за номером \_\_\_\_\_). Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2026 года.

(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2026 года).

**И. С. Абдуллаев**

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

**Т. Ж. Рахимов**

Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, д.э.н., доцент

**Б. Рузметов**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ

### (аннотация диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD))

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Транспортная инфраструктура занимает важнейшее место в обеспечении устойчивого развития мировой экономики. Транспортная система представляет собой комплекс, обеспечивающий размещение производительных сил, оборот ресурсов, движение товаров и услуг, мобильность населения, а также межрегиональную экономическую интеграцию. В частности, объём мирового рынка транспорта и логистики в 2024 году оценивался в 1207,84 млрд долларов США, а к 2032 году, по прогнозам, достигнет 1798,17 млрд долларов США при среднегодовом темпе роста 5,1 %<sup>22</sup>. Таким образом, совершенствование транспортной инфраструктуры не только повышает экономическую эффективность, но и служит решающим фактором обеспечения социально-экономического баланса, укрепления экологической устойчивости и повышения конкурентоспособности регионов.

Развитие транспортно-коммуникационной системы в мире ускоряет интеграцию регионов в глобальную экономическую систему. В то же время устаревание транспортной инфраструктуры, дисбаланс в логистической системе и низкое качество дорожных сетей и транспортных услуг остаются факторами, препятствующими экономическому росту. Поэтому важно совершенствовать транспортную инфраструктуру на основе современных подходов, а именно: внедрения цифровых технологий, использования экологически чистых транспортных средств, создания мультимодальных логистических центров и расширения механизмов государственно-частного партнерства.

В условиях формирования Нового Узбекистана вопросам совершенствования транспортной инфраструктуры в целях обеспечения устойчивого развития экономики уделяется особое внимание. В частности, 28-й цели стратегии развития, выдвинутой Президентом Республики Узбекистан, является увеличение экспорта автомобилей в 3 раза и доведение его до 1 миллиарда долларов США.<sup>23</sup> Подчеркивается, что устойчивое развитие экономики региона напрямую зависит от состояния и эффективности транспортной инфраструктуры. Увеличение инвестиций в инфраструктурные проекты, интеграция транспортных сетей и соблюдение принципов экологической безопасности повысят экономическую активность в регионах, улучшат уровень жизни населения и рассматриваются как важное направление долгосрочного устойчивого развития.

Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 г. № ПФ-60 «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы», Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 г. № 4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Указ Президента Республики

<sup>22</sup> <https://www.databridgemarketresearch.com/reports/global-transport-and-logistics-market>

<sup>23</sup> Узбекистан Республика Президентский « На 2022–2026 годы » от 28 января 2022 года . намеревался новый Узбекистан прогресс стратегия Постановление № PF-60 « От . Источник: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Узбекистан от 4 марта 2015 г. № 4707 «О программе мер по обеспечению структурной трансформации, модернизации и диверсификации производства в 2015-2019 годах», Постановление Президента Республики Узбекистан от 1 июня 2017 г. № ПК-3028 «О мерах по дальнейшему совершенствованию управления автомобильной промышленностью» и другие нормативно-правовые акты. Данное диссертационное исследование в определенной степени способствует выполнению задач, поставленных в документах.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и техники республики.** Диссертационное исследование проводилось в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики под названием «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Уровень изученности проблемы.** Вопросы развития и совершенствования транспортной инфраструктуры в экономиках зарубежных стран широко освещены в научных исследованиях Ф.Бэкона, А.Буринскене, Р.Крещенци, А.Родригеса-Позе, Г.Эйдельмана, М.Хорака, Р.Йохимсена, О.Кацудоши, К.Магаццино, М.Меле, Р.Покхареля, Л.Бертолини, М.Броммельстрота, К.Роберт, П.Розенштейн-Родан, П.Самуэльсон, В.Нордхаус, Д.Юн и др.<sup>24</sup>.

Эффективное развитие транспортной инфраструктуры и совершенствование её функционирования для устойчивого развития экономики стран СНГ. Эти вопросы изучались в исследованиях О.Р. Антоновой, М.П. Болодуриной, А.И. Мишуровой, О.М. Вольской, Т.О. Корниенко, Д. Коттс, В.В. Круглова, И.И.Людвика, М.В. Михайлова, К.А. Митрюковой, Н.Р.Павленко, В.Ю. Прокопенко, М.В. Дубина, С.П. Сонко, М.М.Скринько и другие<sup>25</sup>.

---

